

10-194 - sonli HISOB-SHARTNOMA

Toshkent shahri

2022.13.01

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, bundan keyin "Ijro etuvchi" deb ataladi, nomidan 2020-yil "15" dekabr sanasida berilgan 75-sonli ishonchnoma asosida harakat qiluvchi Toshkent shahar statistika boshqarmasi boshlig'i Babamirzayev Abdubanno Abdurashitovich shaxsida bir tarafdin va bundan keyin "Buyurtmachi" deb ataladi, "TUKK.MU" JSHY. asosida harakat qiluvchi nosp. xalqaro. b-y. shaxsida ikkinchi tarafdin, birgalikda "Taraflar" deb ataladi, quyidagilar haqida mazkur shartnomani tuzdilar:

1. Shartnoma predmeti

1.1. "Buyurtmachi" buyurtmasiga asosan "Ijro etuvchi" spetsifikatsiyaga muvofiq, statistik ma'lumotlarni tayyorlash, qayta ishlash va taqdim etish ishlarini bajarishni o'z zimmasiga oladi.

2. Ishlarning (xizmatlarning) narxi va hisob-kitob qilish tartibi
Statistik ma'lumotlarni hajmini belgilash spetsifikatsiyasi

Statistika ma'lumotlar nomi	Narhi (QQSni hisobga olgan holda)	Buyurtma hajmi	Bahosi (QQSni hisobga olgan holda)
O'zbekiston raqamlarda	58 000		
O'zbekistonda ijtimoiy rivojlanish va turmush darajasi	54 000		
O'zbekiston sanoati	46 000		
O'zbekistonda transport va aloqa	37 000		
O'zbekiston qishloq xo'jaligi	63 000		
O'zbekistonda qurilish	44 000		
O'zbekistonda savdo	35 000		
O'zbekiston hududlarining yillik statistik to'plami	91 000		
O'zbekiston demografik yillik to'plami	49 000		
O'zbekistonda mehnat va bandlik	39 000		
O'zbekistonda kichik tadbirkorlik	45 000		
Ayollar va erkaklar	51 000		
O'zbekistonda axborotlashgan jamiyat rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari	46 000		
O'zbekistonda ilm-fan va innovatsion faoliyat	31 500		
O'zbekistonda narxlar	30 000		
O'zbekistonda ta'lim	90 000		
O'zbekistonda sog'liqni saqlash	95 000		
Yillik statistik to'plam	130 000		
Jami	1 034 500		

2.1. Ushbu hisob-shartnoma imzolanganidan so'ng, "Buyurtmachi" 5 (besh) bank kuni ichida statistik ma'lumotlarni tuzish va yig'ish uchun shartnoma bahosining 100 % (foizini) "Ijro etuvchi"ning hisobraqamiga pul o'tkazish yo'li bilan to'laydi. Ushbu hisob-shartnoma to'lov uchun asos hisoblanadi.

2.2. "Ijro etuvchi" o'z hisobraqamiga to'lov kelib tushgan kundan keyin 30 (o'ttiz) bank ish kuni ichida "Buyurtmachi"ga statistik ma'lumotlarni tayyorlaydi va taqdim etadi.

2.3. "Ijro etuvchi" tomonidan to'plam, jadval ko'rinishida rasmiylashtirilgan va tayyorlangan statistik ma'lumotlar "Buyurtmachi"ning vakolatli shaxsiga taqdim etiladi (shaxsan "Ijro etuvchi" joylashgan joydan olib ketish tartibida).

3. Tomonlarning javobgarligi

3.1. Agar "Taraflar"dan biri shartnoma shartlarini bajarmasa yoki lozim darajada bajarmasa, ikkinchi taraf O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, O'zbekiston Respublikasining "Xo'jalik yuritiuvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonuni va boshqa amaldagi qonun hujjatlariga asosan javobgarlikni o'z zimmasiga oladi.

3.2. Shartnomaviy majburiyatlarni buzgan taraf ikkinchi tarafga yetkazilgan zararni to'lash majburiyatini oladi.

4. Alohida shartlar

4.1. Ushbu shartnoma faqat "Ijro etuvchi" tomonidan statistik ma'lumotlarni qayta ishlash va tayyorlash ishlarini bajarish uchun qo'llanadi.

4.2. Agar "Taraflar"dan birining manzili, bankdagi hisobraqami va boshqa zaruriy rekvizitlari o'zgarganda, ikkinchi "Taraf"ni 5 (besh) kunlik muddat ichida ogohlantirishi shart. "Taraflar" ogohlantirilmaganligi sababli zararni ikkinchi taraf qoplaydi.

5. Fors-major holatlar

5.1. "Taraflar" o'zlariga bog'liq bo'lmagan holatlarda, tabiiy ofatlar yuz berganda, favqulodda vaziyatlarda va boshqa shunga o'xshash vaziyatlarda shartnoma talablarini to'liq yoki qisman bajarmaganliklari uchun javobgar bo'lmaydi.

5.2. Ushbu holatga tushgan "Taraf" 7 (yetti) kun ichida boshqa "Taraf"ni vakolatli davlat organlari tomonidan shunday holatlar yuz berganligini tasdiqlash uchun berilgan ma'lumotlar asosida ogohlantirishi shart.

6. Shartnomani o'zgartirish va bekor qilish

6.1. Ushbu shartnoma "Taraflar"ning o'zaro kelishuviga asosan bajariladigan ishlar hajmi, muddati va narxi miqdorida o'zgartirilishi yoki umuman bekor qilinishi mumkin.

6.2. Shartnomaga kiritilishi lozim bo'lgan o'zgartirish va qo'shimchalar yozma shaklda tuziladi va har ikki "Taraflar"ning vakolatli shaxslari tomonidan imzolanganidan so'ng kuchga kiradi hamda ushbu shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadi.

6.3. Shartnomaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish yoki shartnomani bekor qilish haqidagi taklif, o'zgartirish va qo'shimcha kiritilishi yoki shartnoma bekor qilinishi belgilangan muddatdan 1 (bir) oy avval berilishi zarur. Taklifni olgan "Taraf" taklif kelib tushgan kundan boshlab 10 (o'n) bank kuni ichida javob berishi zarur.

6.4. Agar shartnoma muddatidan avval bekor qilinsa, "Taraflar" ushbu shartnomada olingan majburiyatlar bo'yicha o'zaro hisob-kitob qilishga majburdirlar.

7. Nizolarni hal qilish tartibi

7.1. Mazkur shartnoma bo'yicha tug'iladigan bahs va kelishmovchiliklarni "Taraflar" o'zaro kelishuv orqali hal etadilar, aks holda ular amaldagi qonunchilik asosida "Ijro etuvchi" joylashgan joydagi iqtisodiy sudlari orqali hal etiladi.

8. Shartnomaning amal qilish muddati

8.1. Ushbu shartnoma "Taraflar" imzolagandan keyin kuchga kiradi hamda 2022-yil 31- dekabrgacha amal qiladi.

8.2. Mazkur shartnoma har bir "Taraf" uchun bittadan 2 (ikki) nusxada tuzildi.

9. Taraflarning yuridik manzillari va rekvizitlari

Ijro etuvchi Buyurtmachi
O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

Manzil: Toshkent shahri, Mustaqillik shoh ko'chasi, 63-uy.
Telefon: +99871 202-80-78, +99871 202-81-71
X/r: 20210000900182544001
"Trastbank" XABB "Darxon" filiali,

Pochta manzili va telefon raqami:

Hisob raqami: _____
Bank nomi: _____

MFO: 00954
STIR: 200523356
IFUT: 84719

Bank kodi MFO: _____
STIR: _____
IFUT: _____

Yuriskonsult
"Ijro etuvchi"
O'zbekiston Respublikasi Davlat
statistika qo'mitasi



"Buyurtmachi"
M.O. (imzo)
Юрист
Индлом KB № 812656
F.I.S.H.

ISHLARNI BAJARILGANLIGI HAQIDAGI _____ - SONLI DALOLATNOMA

20 ___ yil " ___ " _____ sanada tuzilgan _____ -sonli hisob-shartnomaga

Xizmatlar (ishlar) nomi	Bajarilgan ishlar bahosi (QQSni hisobga olgan holda)
Statistik ma'lumotlarni va jadvallarni yig'ish, tanlash, qayta ishlash, tuzish va nashr etish	

Barcha ko'rsatilgan xizmatlar:

Yuqorida sanab o'tilgan ishlar (xizmatlar) to'liq va a'lo darajada bajarildi. "Buyurtmachi" ishlarning (xizmatlar) hajmi, sifati, muddati bo'yicha da'voga ega emas.

"Ijro etuvchi":



"Buyurtmachi":

